

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

1/S-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Мадреймов Фархат Махсетбаевич</i> СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ В 1920-1924 ГОДАХ	12-18
<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> АНТРОПОЛОГИЯ ИМПЕРСКОЙ ВЛАСТИ: ХАКЕНТСКИЕ ЗЕМЛИ И АДВОКАТ С. ЛАПИН	19-23
<i>Чориев Шохрух Холтура угли</i> ИСТОРИОГРАФИЯ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА В 40-90-Е ГОДЫ ХХ ВЕКА	24-35
<i>Najmiddinov Boburmirzo Zuhridin o'g'li</i> SOVET HOKIMIYATINING 1917-1943-YILLARIDA O'ZBEKISTON SSR DA AMALGA OSHIRGAN DINIY SIYOSATI	36-43
<i>Esonova Nilufar</i> SANOAT SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK MUNOSABATLAR TARIXINING O'RGANILISHI: TAHLIL VA NATIJALAR (1991-2018-YILLAR)	44-47
<i>Qarshiyev Ahmad, Jumayev Abdimo'min, Bebitov Maqsud</i> DENOV BEKLIQIDA MAVJUD JOY NOMLARIGA OID MULOHAZALAR	48-55
<i>Qurbonov Abbas</i> MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA QASHQADARYODA YENGIL SANOAT SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	56-59
<i>Abduraimova Sabohat Ergash qizi</i> BUXORO AMRLIGI DAVRIDA CHIROQCHI BEKLIQI AHOLISINING TURMUSH TARZI	60-65

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Karjavova Xurshida Abdumalikovna</i> MAHALLA INSTITUTINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	66-73
<i>Pardayev Erkin Egamberdi o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA SIFATNI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	74-82
<i>Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li</i> O'ZBEKISTON POCHTA BOZORIDA XUSUSIY POCHTA KORXONALARINING TUTGAN O'RNI (BTS, DMS, EMU POCHTALARI MISOLIDA)	83-86
<i>Чинорова Шаҳодат Мансур кизи, Нормуродов Хусан Эшмаҳматович</i> ЗНАЧЕНИЕ ТАРГЕТИРОВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ	87-93
<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> GREEN BONDS: FINANCING RESOURCE CONSERVATION FOR A SUSTAINABLE FUTURE IN FARMING IN UZBEKISTAN	94-108

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Rashidova Dilfuza Ganievna</i> XIX ASR O‘ZBEK SHOIRALARINING IJODIDA GUMANISTIK G‘OYALAR VA IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLAR	109-113
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i> GENDER TENGLIGINI TA‘MINLASHNING IQTISODIY-IJTIMOY OMILLARI	114-118
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY ASARLARIDA FALSAFIY TUSHUNCHALAR VA ULARNING ILMIY–METODOLOGIK TAHLILI	119-123
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATI VA MEDIA-MADANIYATNING NAZARIY-FALSAFIY TUSHUNCHASI	124-131
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag‘alievna</i> EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI	132-136
<i>Narzukulova Ferangiz Rustamjonovna</i> ILMIY TIL VA FALSAFIY TERMINOLOGIYA: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	137-141
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich</i> IJTIMOY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN‘IY INTELLEKTNING INSON SALOHIYATIGA TA‘SIRI	142-148
<i>Султанов Бахтиёр Бахтиёрович</i> ОБРАЗ ФИЗИЧЕСКОЙ РАЗВИТОЙ, ГЕРОИЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В ЭПОХУ АНТИЧНОСТИ	149-153
<i>Bozorov Suxrob Komilovich</i> MA‘NAVIY TRANSFORMATSIYANING ISTIQBOLLARI: INNOVATSION G‘OYA VA LOYIHALAR	154-157
<i>Kimsanbayeva Shaxnoza Bakridinovna</i> MILLIY O‘ZLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK: ZAMONAVIY JAMIYATDAGI O‘ZARO TA‘SIRLAR	158-163
<i>Muxamedjanova Lalixon</i> GLOBALASHUV VA MADANIYATLARARO ARALASHUV	164-172

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING DIAKRON TADQIQI	173-180
<i>Mahmudova Umida Ural qizi</i> INTERNET DISKURSIDA FOYDALANILADIGAN EMOJILARNING LISONIY VA MADANIY JIHATLARI	181-189
<i>Madalov Navruz Ergashevich</i> IMPORTANT SUBJECTS OF COMPARATIVE AND CONTRASTIVE PHILOLOGICAL STUDIES AND TRANSLATION DIFFICULTIES OF STRUCTURAL–SEMANTIC MODELS OF PROVERBS	190-194
<i>Ubaydullayev Normuhammad Xasanovich</i> XOTIRANOMALARDA ZAMON VA MAKON MASALASI	195-198

<i>Ochilova Habiba Akramovna</i> ISSUES IN THE CLASSIFICATION OF QUESTION SENTENCE TYPES IN LINGUISTICS ...	199-207
<i>Muxammadiyeva Mashxura, Amirqulova Gulxayo</i> FILOLOGIK TADQIQOTLARNING ZAMONAVIY TIBBIY TARJIMA VA TALQINGA TA'SIRI	208-213
<i>Karabaeva Barno Bobir qizi</i> A COMPARATIVE ANALYSIS OF METAPHORICAL EXPRESSIONS REFLECTING PERCEPTION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	214-219
<i>Axunbabaeva Narqiza Xamidjanovna</i> ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДОВ ИСТОРИЧЕСКИХ И АРХАИЧНЫХ СЛОВ В ДОКУМЕНТАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКОЙ ПОВЕСТИ «ВЛАСТИТЕЛЬ СЕМИ СОЗВЕЗДИЙ»	220-226
<i>Turdaliyeva Shahnoza O'ktamovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SON-GIBRID MAQOLLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI	227-236
<i>Mansurova Shohista Isroilovna</i> OT OBRAZI TUSHUNCHASI (ZAMONAVIY O'ZBEK VA JAHON ADABIYOTI MISOLIDA)	237-241
<i>Davranov Akmal Akramjonovich</i> IJTIMOIY TENGLIK TUSHUNCHASI (INGLIZ UTOPIYALARI VA O'ZBEK DOSTONLARI MISOLIDA)	242-246
<i>Yuldasheva Aziza Yuldashevna</i> TARJIMASHUNOSLIKDA PRAGMATIKANING O'RNI	247-252
<i>Mirvaliyeva Malika Zoid qizi</i> SEMANTIKANING TARJIMADAGI AHAMIYATI	253-257
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i> JADID ADABIYOTI VA MODERNIZATSIYA JARAYONLARI	258-262
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE MOOD OF LONGING FOR FREEDOM IN THE AGE OF BYRON	263-266
<i>Narzikulova Rayhona Ahmadovna</i> THE PRAGMATIC FUNCTIONS OF IRONY	267-271
<i>Najmiddinov Muhammadjon</i> O'ZBEK TILIDA KO'P MA'NOLILIK, SINONIMIYA, OMONIMIYA VA ULARNING ELEKTRON TEZAVURUSDA AKS ETISHI	272-278
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i> LEKSIK-SEMANTIK DEVIATSIYA ILGARI SURISH VOSITASI SIFATIDA	279-284
<i>Tashpulatova Mukambar Axmetovna</i> KOMPYUTER LINGVISTIKASI VA SUN'IY INTELLEKTNING TILGA TA'SIRI	285-289
<i>Normamatov Farrux, Toshpo'latova Xusniya</i> GLOBAL KESIMDA INGLIZ MADANIYATINING LINGVOKULTUROGIK JIHATLARI	290-293
<i>Shonazarova Gulnoza, Madiyeva Madina</i> THE ROLE OF INTERNET RESOURCE IN IMPROVING TEACHING FOREIGN LANGUAGE: METHODOLOGICAL ANALYSIS AND PRACTICAL RECOMMENDATIONS	294-297

<i>Jo'rayeva Lola Tolibdjonovna</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA NEOLOGIZMLARNING BUGUNGI KUNDAGI QO'LLANILISHI	298-302
<i>Saitxanova Aziza Xolmuxamedovna</i> TA'M VA TIL O'RTASIDAGI MUVOZANAT: TAOM DISKURSINING TARJIMA QIYINCHILIKLARI VA YECHIMLARI	303-307
<i>Axmedov Shaxzod, Nazarov Vafokul</i> NEOLOGIZMLAR TADQIQI TARIXIGA DOIR	308-312
<i>Mustafayeva Sojida Ulashevna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARDA MERONIMIK MUNOSABATLI SO'ZLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINLARI	313-321
<i>Buriyeva Muxayyo Zokir qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF MEAT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	322-326
<i>Berdiqulova Shaxnoza Ruziqulovna</i> YORDAMCHI SO'ZLARNING SHAKLIY XUSUSIYATLARIGA KO'RA TURLARI VA YASALISHI: BOG'LOVCHILAR	327-330
<i>Shokirova Gulbahor Alimovna</i> NEMIS TILINI O'QITISHDA YANGI YONDASHUVLAR	331-334
<i>Najmidinova Nafisa Ulja qizi</i> O'ZBEK TILIDA SO'ZLASHUVCHILARGA ITALYAN TILINI O'RGATISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI	335-339
12.00.00 - YURIDIK FANLAR	
<i>Утемуратов Махмут Ажимуратович</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРАВА (ОТ ТРАДИЦИОННОГО К ЦИФРОВОМУ ПРАВУ)	340-344
<i>Masadikov Sherzodbek</i> ENFORCEMENT OF ARBITRATION AGREEMENT UNDER UZBEK LAW	345-351
<i>Alieva Kamola Ravshanovna</i> ONLINE GENDER-BASED VIOLENCE IN UZBEKISTAN: GAPS IN LEGISLATION AND THE PATH FORWARD	352-363
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li</i> KONTRABANDA UCHUN JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIK EVOLYUTSIYASI: TARIXIY-HUQUQIY TAHLIL	364-372
<i>Ходжаева Ширин</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ВСЕМИРНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В СИСТЕМЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА	373-378
<i>Каюмова Асаля Султномуродовна</i> ЭЛИТА ИНДУСТРИИ ВЕНЧУРНОГО КАПИТАЛА	379-384
<i>Mirzaraximov Baxtiyor, Shokirov Bobur</i> ZAMONAVIY TASHKILOTLARDA KIBERXAVFSIZLIK STRATEGIYALARINING SHAKLLANISHI VA SAMARADORLIGI: MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH CHORALARINING RIVOJLANISHI VA NATIJADORLIGI TAHLILI	385-392

<i>Суннатиллаева Сарвиноз Иззатулло кизи</i> ДИСКРЕЦИОННЫЕ ПОЛНОМОЧИЯ В ЕВРОПЕЙСКОМ СОЮЗЕ И СОВЕТЕ ЕВРОПЫ: ПРЕДЕЛЫ, КОНТРОЛЬ И СУДЕБНАЯ ПРАКТИКА	393-400
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> CHET ELLIK INVESTORLARNING HUQUQIY MAQOMI HAMDA ULARNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA IMTIYOZ VA PREFERENSIYALAR BERISH	401-406
<i>Raximbayev O'tkir Fayzullayevich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALASIGA NAZAR	407-414
<i>Ubaydullayev Abror Qutpilla o'g'li</i> HOZIRGI ZAMON ISLOM MOLIYA HUQUQI VA AN'ANAVIY HUQUQIY TIZIMLAR O'RTASIDAGI QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	415-423
<i>Zokirov Sardorjon Karimjon ugli</i> PROCEDURAL FEATURES OF PARTICIPATION DEFENSE COUNSEL AT THE PRELIMINARY INVESTIGATION	424-430
<i>Axmedova Guliruxsor Ravshanovna</i> BOLANI OLIB BERISH VA UCHRASHTIRISH BILAN BOG'LIQ ISHLARNI KO'RIB CHIQISH BO'YICHA SUD VA HUQUQIY AMALIYOTNING DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLARI	431-436
<i>Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li</i> MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISH YUZASIDAN ISH YURITISH MAZMUNI	437-441
<i>Hakimov Sunnat Furqat o'g'li</i> SPORT JAMOAT BIRLASHMALARINING HUQUQIY TAHLILI	442-445
<i>Файзиев Фарход Фуркат угли</i> ЗНАЧИМОСТЬ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛИ В СОВРЕМЕННЫХ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫХ УСЛОВИЯХ	446-452
<i>Файзиева Гулрух Мухаммади кизи</i> МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВА НА НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ ЖИЛИЩА	453-459
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Polvonov Baxtiyor Zaylobidinovich</i> TIBBIYOT UNIVERSITETLARIDA «MODDALARNING NURLANISH SPEKTRINI O'RGANISH» MAVZUSINI IT TECHNOLOGIYALAR ASOSIDA NAMOYISH ETISH MASALALARI	460-466
<i>Hamdamova Nozima Muqimovna</i> BO'LAJAK TECHNOLOGIYA FANI O'QITUVCHISI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	467-475
<i>Zulfixarov Ilxom Maxmudovich, Zulfikorova Munajat Mirzaxmatovna</i> IQTISODIY-IJTIMOY GEOGRAFIK BILIMLAR BERISHDA MATEMATIK METODLARDAN FOYDALANISH	476-481
<i>Qurbonova Nigina Boboxo'jayevna</i> ESDALIKLAR — SADRIDDIN AYNIYNING UMR VA XOTIRA KITOB I	482-488

<i>Toshtemirova Saodat Abdurashidovna</i> KLAUSTER TIZIMIDA TARIX FANLARINI O'QITISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	489-494
<i>Inoyatov Odiljon Sabitovich</i> TEKISLIKLARNING O'ZARO PARALLELLIGI	495-500
<i>Жумамуратова Аибахар Нурмуханбетовна</i> СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ СВЯЗЕЙ	501-508

Received: 15 February 2025
Accepted: 20 February 2025
Published: 25 February 2025

Article / Original Paper

THE PARALLELISM OF PLANES

Inoyatov Odildzhon Sabitovich

GulDPI "History and Art Criticism".

Senior Lecturer of the Department

Abstract. This article analyzes the challenges students face when studying the topic of "The Parallelism of Planes" and explores methods for overcoming these difficulties. Additionally, it highlights the effectiveness of solving metric and positional problems to develop spatial imagination, utilizing step-by-step solution algorithms, and applying non-standard tests.

Keywords: plane, epure, parallel, spatial imagination, principal lines of a plane, plane trace.

TEKISLIKLARNING O'ZARO PARALLELLIGI

Inoyatov Odiljon Sabitovich,

GulDPI "Tarix va san'atshunoslik"

kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada "Tekisliklarning o'zaro parallel bo'lishi" mavzusini o'rganish jarayonida talabalar duch keladigan muammolar va ularni bartaraf etish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, metrik va pozitsion masalalarni yechish orqali fazoviy tasavvurni rivojlantirish, bosqichma-bosqich yechish algoritmlaridan foydalanish va nostandart testlarni tatbiq etishning samaradorligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: tekislik, epyur, o'zaro parallel, fazoviy tasavvur, tekislikning bosh chiziqlari, tekislik izi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI1Y2025N76>

Kirish. 60110500-"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar "Chizma geometriya" fani o'quv dasturidagi mavzularni o'zlashtirish yuzasidan ma'lumotlar darsliklarda keng yoritilgan, o'quv qo'llanmalarda qo'shimcha ma'lumotlar ham mavjud.

Talabalardan "Tekislik va uning ortogonal proyeksiyalari" bo'limidagi mavzularni o'rganish jarayonida hosil bo'lgan fazoviy tasavvurlarini ortogonal proyeksiyalash asosida tekislikka tasvirlash so'raladi. Biroq fazoviy tasavvurdagi elementni epyurda to'g'ri ifodalash uchun yetarli darajada bilim, ko'nikma va malaka kerak bo'ladi.

Chizma geometriyada tekisliklarning o'zaro joylashuvi muhim tushunchalardan biri bo'lib, ulardan biri parallel tekisliklar tushunchasidir. Ikki tekislik o'zaro parallel bo'lishi uchun ular hech qachon kesishmasligi kerak degan tushuncha mavjud, biroq ikki tekislik cheksizlikda bitta umumiy chiziqqa ega bo'ladi. Shu bois chizma geometriya fanini o'rganishda "Tekisliklarning o'zaro parallel bo'lishi" mavzusi katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. "Tekisliklarning o'zaro parallel bo'lishi" mavzusi bo'yicha Sh.Murodov umumiy tahriri asosida nashr etilgan "Chizma geometriya kursi" darsligida quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Agar biror tekislikka tegishli o'zaro kesishuvchi ikki



to'g'ri chiziqlar ikkinchi tekislikka tegishli o'zaro kesishuvchi ikki to'g'ri chiziq'larga mos ravishda parallel bo'lsa, bu tekisliklar ham o'zaro parallel bo'ladi" [1;66-68-b]. Ushbu ta'rifni asoslovchi tasvir epyuri darslikda keltirilgan bo'lib, mavzuni vizual idrok etishga yordam beradi.

J.Yodgorov muallifligida chiqqan "Chizma geometriya" darsligida ikki tekislikning o'zaro vaziyati mavzusida parallel tekisliklar yoritilgan. Unda parallellikning asosiy shartlarini tasvirlash nazarda tutilgan. O'zaro parallel ikki tekislik uchinchi bir tekislik bilan kesilsa, tekisliklarning kesishish chiziqlari ham o'zaro parallel bo'ladi. Shuning uchun parallel tekisliklar izlari bilan berilgan bo'lsa, ularning bir nomli izlari o'zaro parallel bo'ladi [2;48-50-b]. Parallellik shartiga doir berilgan ikkita masala ham faqat tekislik izi bilan berilgan misollardir.

R.Ismatullayev muallifligida chiqqan "Chizma geometriya" o'quv qo'llanmada o'zaro parallel tekisliklar mavzusi doirasida parallel tekisliklar shartlari misollar bilan keltirilgan. Qo'llanmada ushbu shartlarning isboti va ularga oid tasvirlar keltirilgan bo'lib, unda chizmalar orqali parallel tekisliklarning xossalari yoritilgan [3;61-64-b].

Sh.Abdurahmonov, B.Qilnazarov va A.Karimovlar har birining mualliflik o'quv qo'llanmalarida ham "Tekisliklarning o'zaro vaziyatlari" mavzusida tekisliklarning o'zaro parallellik sharti va ta'rifi haqida ma'lumot berilgan.

Yuqoridagi darslik va o'quv qo'llanmalardan talaba tekisliklarning o'zaro parallellik sharti va ta'rifi haqida ma'lumot olganda fazoviy tasavvurlari orqali 1-shakl, *a* dagidek tasavvur qiladi, nazariy va amaliy bilimlariga tayangan holda uning epyurini 1-shakl, *b* dagidek bajaradi.

1-shakl, *a*.1-shakl, *b*.


Talabalar mustaqil ravishda darsda o'tilgan mavzuni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lsalar-da, tekislikka doir masalalar yechishda, ayniqsa, o'zaro parallel tekisliklarning epyurdagi vaziyatlarini tasavvur etish va grafik tasvirlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday qiyinchiliklarni metrik va pozitsion masalalar yechish bilangina bartaraf etish mumkin. Fazoviy tasavvur qilish va tasvirlashga ehtiyoj sezayotgan talabalar mavzuni chuqurroq tushunishlariga turli metrik masalalar turtki bo'ladi.

Muhokama. Chizma geometriya fanidan asosiy darslik va o'quv qo'llanmalarda "Tekisliklarning o'zaro parallel bo'lishi" mavzusi bo'yicha parallellikning ta'rifi va shartlariga doir misollar berilgan. Undagi masalalar, asosan, tekislik izi bilan berilgan, vaholanki, chizma geometriyada tekisliklar quyidagi hollar bilan beriladi: tekisliklar bir to'g'ri chiziqqa tegishli bo'lmagan uchta nuqtaning proyeksiyalari bilan, bir to'g'ri chiziq va unga tegishli bo'lmagan nuqtaning proyeksiyalari bilan, ikki parallel to'g'ri chiziq proyeksiyalari bilan, ikki kesishuvchi to'g'ri chiziq proyeksiyalari bilan va tekis geometrik shakllarning ortogonal proyeksiyalari


orqali ham berilishi mumkin [1;52-b]. Bunga doir masalalar talabalar bilimini va fazoviy idrokini shakllantiradi.

Darsliklarda berilgan masalalarni va masala shartini o'zgartirish bilan mukammallashtirish vaziyatlarini quyidagi masalalar bilan ko'ramiz:


1-masala. P tekislik epyurda izi bilan berilgan (2-shakl, a), unga parallel bo'lgan Q tekislik o'tkazish so'ralsin. Talaba uni 2-shakl, b dagidek fazoviy tasavvur qilib, uning epyurida parallellik shartlariga rioya qilgan holda mustaqil ravishda o'qituvchi ko'magisiz 2-shakl, c dagidek bajara oladi.



2-shakl, a.



2-shakl, b.




2-shakl, c.

Endi ikkinchi masalani talabaga beraylik.


2-masala. $A(A', A'')$ nuqtadan $P(P', P'')$ tekislikka parallel $Q(Q', Q'')$ tekislik o'tkazish so'ralsa (3-shakl, a). Nazariy va amaliy bilimga ega bo'lmagan talaba bu chizmani yoki shunga o'xshash chizmani solishtirgan holda 3-shakl, b dagidek ko'r-ko'rona ko'chirib ishlaydi. Bu masalani yechishda talabalardan tekislikka tegishlilik amallarini va parallellik shartlarini bilishi lozim bo'ladi. Masalani bajarishda o'qituvchining metodik ko'rsatmalarisiz quyidagi tipik xatolarga yo'l qo'yadilar:

1. Berilgan A nuqta $Q(Q', Q'')$ tekislikka tegishli deb tasavvur etmasligi.
2. Tegishlilik amallarini bajarishda gorizonttal yoki frontal chiziqlarning proyeksiyalar o'rnini tushunmasligi va uni epyurda bajarish ketma-ketligi bo'yicha yuzaki bilimga egaligi.

Buni isboti tariqasi masalaning sharti biroz o'zgarsa unda bajariladigan bir necha amallarni talaba integratsiya qila olmaydi. Bu xulosani quyidagi 3-misol orqali ko'rish mumkin.



3-shakl, a.



3-shakl, b.


3-masala. Umumiy vaziyatdagi $P(P_H P_V)$ tekislik izlari bilan berilgan. Undan 30 mm masofada parallel $Q(Q_H, Q_V)$ tekislik o'tkazish so'ralsa (4-shakl, a). Bunday masala metodik

ko'rsatmalarsiz to'g'idan-to'g'ri talabalarga berilganda ularning 40 foizidan ortig'i berilgan P tekislikning OX o'qidagi P_X nuqtasidan 30 mm masofani olib gorizont va frontal iziga parallel chiziq bilan Q tekislik izini o'tkazadi. Yana 20-30 foizi P tekislikning gorizont va frontal iziga perpendikulyar ravishda 30 mm masofani qo'yib parallellikni saqlagan holda Q tekislik izini o'tkazadi. Qolgan 30-40 foiz talaba masalani yechimini turlicha qidiradi.


Talaba masalani yechishda quyidagi algoritmni idrok etgandagina 4-shakl, b dagidek bajara oladi:

1. Berilgan umumiy vaziyatdagi tekislikning biror iziga perpendikulyar bo'lgan proyeksiyalovchi tekislikni o'tkazish.
2. Proyeksiyalovchi tekislikka tegishli bo'lgan to'g'ri chiziq kesmasini umumiy vaziyatdagi tekislikka perpendikulyar vaziyatda olish.
3. Perpendikulyar olingan to'g'ri chiziq kesmasini haqiqiy uzunligini aniqlash.
4. Masaladagi o'lchamni to'g'ri chiziq kesmasining haqiqiy uzunligi ustiga qo'yib uning proyeksiyalarini aniqlash.
5. Aniqlangan nuqtaning proyeksiyasi orqali parallellik shartiga amal qilib tekislik izini olib o'tish.

Bu algoritmni idrok etish uchun unga doir mavzularni nazariy va amaliy jihatlarini hamda turli masalalarni ishlash bilangina erishiladi.



4-shakl, a.




4-shakl, b.


Xuddi shunday masalalardan, tekislik izlari bilan emas, balki boshqa elementlar bilan berilgan bo'lsa unda talabalar tekislikning berilish hollarini, tekislikning bosh chiziqlarini, tekislikka tegishlilik va o'zaro parallellik shartlarini amalda bajara olishlari lozim bo'ladi. Navbatdagi misolni endi tekislik tekis geometrik shaklning ortogonal proyeksiyalari orqali berilgan 4-masala orqali ko'ramiz.

4-masala. $M(M',M'')$ nuqta va $ABC(A'B'C', A''B''C'')$ uchburchak tekislik berilgan. M nuqta orqali ABC uchburchak tekislikka parallel Q tekislik o'tkazish so'ralsa (5-shakl, a).

Bu masalani avvalambor talaba tekislikning bosh chiziqlarini, tekislikning proyeksiyalar tekisliklarida qoldirgan izlarini va parallellik shartlarini to'la o'zlashtirganda quyidagi algoritm bo'yicha 5-shakl, b dagidek yechadi [7;73-74-b]:



5-shakl, a.



5-shakl, b.

Bu jarayon talabalar bilimlarini yaxlit shakllantirish, o'qitish samaradorligini oshirish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishga yordam beradi.

“Tekisliklarning o'zaro parallel bo'lishi” mavzusida yuqorida ko'rib chiqilgan masalalar bilan bir qatorda nostandart testlarni ham qo'llash o'z natijasini beradi. Bunda mavzuga doir nazariy bilimdan to amaliy grafik ishlarni idrok etish bilan tasavvurni paydo etishgacha bo'lgan jarayonni qamrab olish imkoni bo'ladi. Talabalar mavzuga doir masalalar va nostandart testlar bajarish jarayonlarida tasavvuri uyg'unlashadi, grafik savodxonlik ortadi.

Natijalar. “Tekisliklarning o'zaro parallel bo'lishi” mavzusida keltirilgan ta'riflarga doir masalalar asosida talabalar nazariy bilimlarini mustahkamlaydi va fazoviy tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'quv qo'llanmalar va darsliklarda berilgan masalalar va undan tashqari qo'shimcha metrik va pozitsion masalalar asosida tekisliklarning parallellik shartlarini tushunish hamda epyurda to'g'ri aks ettirish ko'nikmalari shakllanadi.

Masalalarni yechish jarayonida quyidagi natijalarga erishildi:

1. Talabalar tekisliklarning parallellik shartlarini tushunishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi, ammo metrik va pozitsion masalalar orqali bu muammolarni hal qilish mumkin.
2. O'zaro parallel tekisliklarning epyurdagi vaziyatlarini tasavvur qilish va grafik tasvirlash uchun maxsus metodik yondashuvlar talab etiladi.
3. Mavzuga oid masalalarni bosqichma-bosqich yechish algoritmlari orqali talabalar chizma geometriyaning asosiy tushunchalarini chuqurroq o'zlashtirishlari mumkin.
4. O'quv jarayonida innovatsion yondashuvlar, jumladan, nostandart testlardan foydalanish talabalar grafik savodxonligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Umuman olganda, mavzuga oid masalalarni amaliy yechish orqali talabalar tekisliklarning parallellik shartlarini chuqur o'zlashtirishga erishdi va chizma geometriya bo'yicha bilimlarini takomillashtirdi.

Xulosa. “Tekisliklarning o'zaro parallel bo'lishi” mavzusini o'rganish talabalarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish hamda ortogonal proyeksiyalash orqali aniq grafik tasvir yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida chizma geometriya fanidagi asosiy darslik va o'quv qo'llanmalarda parallellik shartlari nazariy jihatdan yoritilgani, ammo talabalar ushbu mavzuni amaliy o'zlashtirish jarayonida ayrim qiyinchiliklarga duch kelishi aniqlandi.

Masalalarni yechish jarayonida metrik va pozitsion usullarni qo'llash talabalar fazoviy idrokini oshirishda samarali ekanligi kuzatildi. Xususan, tekisliklarning parallellik shartlarini o'rganishda bosqichma-bosqich yechish algoritmlaridan foydalanish chizma geometriya asoslarini chuqurroq o'zlashtirishga yordam berdi. Bundan tashqari, nostandart testlar va innovatsion yondashuvlarning qo'llanilishi talabalar grafik savodxonligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Quyidagi masala shartlari tavsiya etiladi:

1. Nuqta va tekislik izi bilan berilgan. Nuqtadan tekislikka parallel tekislik o'tkazilsin.

2. Nuqta va tekislik ikki kesishuvchi to'g'ri chiziq proyeksiyalari orqali berilgan. Nuqtadan tekislikka parallel tekislik izlari o'tkazilsin.

3. Umumiy vaziyatdagi tekislik izlari bilan berilgan. Undan 30 mm masofada parallel tekislik o'tkazilsin.

4. O'zaro parallel ikki to'g'ri chiziq proyeksiyalari orqali berilgan umumiy vaziyatdagi tekislikdan 30 mm uzoqlikda unga parallel tekislik o'tkazilsin va tekislik izi aniqlansin.

Umuman olganda, mavzuga oid nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar va masalalar orqali mustahkamlash talabalar tomonidan tekisliklarning parallellik shartlarini to'g'ri idrok etish va epyurda to'g'ri tasvirlash imkoniyatini yaratdi. Bu esa ularning chizma geometriya bo'yicha umumiy bilim va ko'nikmalarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sh.K.Murodov, A.A.Xolmurzaev, A.N.Valiyev. Chizma geometriya kursi. "History and page" nashriyoti, 2022.-540 b.
2. J.Yodgorov. Chizma geometriya. "Turon-iqbol" nashriyoti, 2007.-232 b.
3. R.Ismatullayev. Chizma geometriya. Nizomiy nomidagi TDPU, 2003.-110 b.
4. Sh.Abdurahmonov. Chizma geometriya. "Aloqachi" nashriyoti, 2005.-189 b.
5. B.Qilnazarov. Chizma geometriya. "O'zbekiston" nashriyoti, 2006.-144 b.
6. A.Karimov. Chizma geometriya. "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2017.-208 b.
7. O.Inoyatov- Chizma geometriyadan masalalar va ularning yechimi, "Ziyo nashr-matbaa", 2024.-120 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).